

FRAZEOLOGIZMLARNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

ingliz tilidagi iboralar misolida

Yuldosheva Durdona

dryuldosheva@gmail.com

Namangan davlat chet tillari instituti magistr talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14813436>

Annotatsiya. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi frazeologizmlarning, asosan, ingliz tilidagi iboralar, birikmalar, feʼlli birikmalar, matallarning oʻziga xosligi va asosiy xususiyatlari haqida maʼlumot berish, hamda bir nechta ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tahlil qilishdan iborat.

Shuningdek, ingliz tilidan oʻzbek tilida toʻgʻri va notoʻgʻri tarjima qilingan birliklar, asarlardan parchalar asosida koʻrib chiqilgan va diskursga tushadigan mos tarjimalar berib oʻtilgan.

Tayanch tushunchalar: frazeologizmlar, maʼno, ibora, frazeologik birliklar, matal.

MAIN FEATURES OF PHRASEOLOGISMS

on the example of English expressions

Abstract. The main purpose of this article is to provide information about the uniqueness and main features of phraseologisms, mainly English expressions, combinations, verb combinations, proverbs, and to analyze several English phraseological units. Also, units correctly and incorrectly translated from English into Uzbek are considered on the basis of excerpts from works and appropriate translations that fit into the discourse are given.

Key concepts: phraseologisms, meaning, expression, phraseological units, proverb.

ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ

на примере английских фраз

Аннотация. Основной целью данной статьи является предоставление информации об уникальности и основных признаках фразеологизмов, в основном английских выражений, сочетаний, глагольных комбинаций, пословиц, а также анализ нескольких английских фразеологических единиц. Кроме того, были рассмотрены правильно и неправильно переведенные единицы с английского языка на узбекский язык на основе отрывков из произведений, и были предоставлены соответствующие переводы, соответствующие дискурсу.

Ключевые понятия: фразеология, значение, выражение, фразеологические единицы, пословица.

Frazeologizmlar har bir tilda, ayniqsa, badiiy adabiyotda juda muhim rol o'ynaydi. Ular tilning o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda ushbu soha ustida ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Frazeologiya mustaqil fan sohasi sifatida 20-asrning o'rtalarida rivojlana boshladi. Ushbu sohani ilmiy asosda rivojlantirishga bir qator tilshunos olimlar hissa qo'shgan. Masalan, Sharl Bally frazeologik birliklarni o'rganishni birinchi bo'lib ilmiy tilshunoslik sohasiga kiritgan olimlardan biridir. U tilning ekspressiv xususiyatlariga katta e'tibor qaratgan va frazeologiyani tilning obrazli va emotsional ifoda vositasi sifatida o'rgangan.

Vinogradov frazeologiyani mustaqil fan sohasi sifatida shakllantirishda yetakchi olim hisoblanadi. U frazeologik birliklarni tahlil qilishda ilmiy yondashuvni ishlab chiqdi va frazeologizmlarni semantik tuzilishiga ko'ra tasnif qildi. Shmelev frazeologiyaning strukturaviy va semantik xususiyatlarini o'rganib, frazeologizmlarning leksik birliklardan farqini aniqlagan. U, shuningdek, frazeologizmlarning kontekstdagi vazifalarini tahlil qilgan.

Amosova kontekstual frazeologiyani rivojlantirgan. U frazeologizmlarni kontekst doirasida o'rganib, ularning kommunikativ ahamiyatini tahlil qilgan. Cowie frazeologiyaning nazariy asoslarini rivojlantirgan va ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'rganishga katta e'tibor qaratgan. U frazeologiya va leksikografiya o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlagan.

O'zbekistonda frazeologiya fani 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy ravishda rivojlana boshladi. Bu jarayon o'zbek tilshunosligining umumiy rivoji bilan bog'liq bo'lib, frazeologik birliklarni o'rganish asosan o'zbek xalqining boy og'zaki va yozma adabiyoti orqali shakllandi. Ushbu soha yurtimizda rivojlanishi uchun bir qator olimlar hissa qo'shgan.

Misol uchun, T. Mirzayev – O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning tasnifiga katta e'tibor qaratgan. Sh. Rahmatullayev – Frazeologiyaning nazariy asoslarini rivojlantirishga hissa qo'shgan va uning o'zbek tili grammatikasi bilan bog'liqligini o'rgangan. A. Madvaliyev – Frazeologik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan. N. Mahmudov – Frazeologik birliklarning til va madaniyatdagi o'rni haqida tadqiqot olib borgan.

Mustaqillik davri(1990-yillardan boshlab)da o'zbek tili frazeologiyasini milliy o'zlik va madaniyatni aks ettiruvchi muhim soha sifatida o'rganish kuchaydi. Frazeologik birliklarning tarjimai va boshqa tillar bilan qiyosiy tadqiqotlariga katta e'tibor qaratila boshlandi.

Frazeologiya rivojining sabablari: O'zbek xalqining boy folklor merosi. Adabiyot va badiiy asarlarda ishlatiladigan frazeologizmlar. Tilning milliy va madaniy o'ziga xosligini o'rganishga qiziqish. Ayniqsa, adabiy tilni rivojlantirishda va badiiy asarlarni tahlil qilishda frazeologiyaning o'rni beqiyosdir.

Har bir tildagi frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ingliz tili ham bundan mustasno emas. Ingliz tili juda ham frazeologizmlarga boy til hisoblanadi. Ingliz tilidagi frazeologizmlarning o'ziga xosligi va asosiy xususiyatlari quidagi jihatlarda ko'rinadi:

1. Semantik yaxlitlik

Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari alohida-alohida emas, balki bir butun holda tushuniladi. Ularning lug'aviy ma'nosi yashirin yoki ko'chma bo'ladi. **Kick the bucket** – so'zma-so'z chelakni tepmoq degan ma'no bersa, frazeologik ma'nosi vafot etmoq hisoblanadi.

2. Barqarorlik

Frazeologizmlar tuzulishi o'zgaruvchan emas, ular doim bitta shaklda qo'llaniladi. **Bite the dust** - muvaffaqiyatsizlikka uchrash, ushbu brikmada tarkibiy so'zlarni o'zgartirish mumkin emas.

3. Tasviriylilik va emotsionallik

Frazeologizmlar ko'pincha tasviriylilik va hissiy ma'noga ega bo'lib, ular nutqni boyitadi. **A piece of cake** (o'ta oson) – sodda ishni shirin tort bilan qiyoslash orqali tasvirli ma'no beradi.

4. Madaniy va tarixiy omilga bog'liqlik

Frazeologizmlar til va millat madaniyati bilan uzviy bog'liq. Ingliz tilidagi ko'plab iboralar Britaniya yoki Amerika madaniyatidagi voqealar, an'analar yoki tarixiy shaxslarga ishora qiladi.

The apple of one's eye (kimningdir ko'zining oqu qorasi) qadimgi Angliyada o'ta qimmatli narsani ifodalash uchun ishlatilgan.

5. Tuzilishdagi xilma-xillik

Ingliz tilidagi frazeologizmlar turli grammatik tuzilmada bo'ladi:

- **Masal (Proverb):** Actions speak louder than words (Ish so'zdan baland turadi);
- **Idiom:** Under the weather (o'zini yomon his qilmoq);
- **Collocation:** Make a decision (qaror qabul qilmoq).

6. Ma'nodagi ko'chish va kontekstga bog'liqlik

Frazeologizmlar ko'pincha ko'chma ma'noni anglatadi va ularning to'g'ri tushunilishi kontekstga bog'liq. **Spill the beans** (sirni ochmoq) iborasi mazmunni tushunish uchun to'g'ri muloqot kontekstini talab qiladi.

7. O'zbek tilidan farqlanishi

Ingliz tilida frazeologizmlarda ko'p hollarda hayvonlar (Let the cat out of the bag – sirni oshkor qilish) yoki ranglar (Once in a blue moon – juda kam hollarda) orqali ma'no ifodalanadi.

O'zbek tilida esa frazeologizmlar ko'pincha qadriyatlar, an'analar yoki urf-odatlariga asoslangan.

Ingliz tili frazeologizmlarining o'ziga xosligi ularning madaniy konteksti va ma'no chuqurligida ko'rinadi. Bu xususiyatlar tarjima paytida katta e'tiborni talab qiladi. Shuning uchun ko'p hollarda ingliz tilida yozilgan asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ham ma'noni ham

stilistik bo'yoqdorlikni ya'ni shakl va mazmunni birdek saqlab qolish qiyin kichadi, bu tarjimondan juda katta mahorat va ikki tilda frazeologik lug'at boyligi ko'p bo'lishini talab qiladi.

Frazeologizmlarning to'g'ri va noto'g'ri tarjima qilingan holatlarini asarlarlardan parchalar asosida ko'rib chiqamiz. Ingliz tilidan o'zbek tiliga to'g'ri va noto'g'ri tarjima qilingan iboralarni asarlar asosida tahlil qilish tarjimaning mazmun va shakliy jihatlariga diqqat qilishni talab qiladi.

1. To'g'ri tarjima qilingan ibora

Jane Austen – *Pride and Prejudice* (G'urur va Taassub): "It is a truth universally acknowledged, that a single man in possession of a good fortune must be in want of a wife."

To'g'ri tarjima: "Hamma tan olgan haqiqat shuki, boy va yakkayu yolg'iz erkak, albatta, o'ziga rafiq izlaydi."

Bu tarjima asl matnning mazmuni va uslubini saqlab qolgan. Undagi "universally acknowledged" iborasi "hamma tan olgan" shaklida aniq ifodalangan.

2. Noto'g'ri tarjima qilingan ibora

William Shakespeare – *Hamlet*: "To be, or not to be, that is the question."

Noto'g'ri tarjima: "Bo'lish yoki bo'lmaslik, bu savol emas."

Tarjimada "savol emas" deyish orqali asl ma'no buzilgan. Shakespeare bu yerda hayot va o'lim haqida chuqur falsafiy masalani ko'taradi, lekin noto'g'ri tarjima buning mohiyatini o'zgartirgan.

To'g'ri tarjima: "Bo'lish yoki bo'lmaslik – mana bu savol."

Bu tarjima Shakespearenin original falsafiy ma'nosini saqlab qolgan.

3. To'g'ri tarjima qilingan ibora

Mark Twain – *The Adventures of Tom Sawyer*: "He had discovered a great law of human action, without knowing it – namely, that in order to make a man or a boy covet a thing, it is only necessary to make the thing difficult to attain."

To'g'ri tarjima: "U inson xatti-harakatining muhim qonunini bilmasdan kashf qilgan edi: odam yoki bola biror narsani xohlasin, desangiz, uni olishni qiyinlashtiring."

Bu tarjima matndagi fikrni va hikoya uslubini to'g'ri yetkazgan.

4. Noto'g'ri tarjima qilingan ibora

Jorge Orwell – *Animal Farm* (Hayvonot bog'i): "All animals are equal, but some animals are more equal than others."

Noto'g'ri tarjima: "Barcha hayvonlar teng, lekin ba'zilari boshqalardan tengroq."

Iboraning ko'chma ma'nosi yo'qolgan. "More equal" iborasi satirik ma'noga ega bo'lib, tenglikni suiiste'mol qilishni ifodalaydi.

To'g'ri tarjima: "Barcha hayvonlar teng, ammo ba'zilari boshqalardan ustunroq."

To'g'ri tarjima asarning mazmunini, madaniy kontekstini va uslubini saqlab qoladi.

Noto'g'ri tarjima esa iboraning ma'no yoki hissiy jihatlarini buzadi. Shu sababli, frazeologik iboralar va badiiy obrazlarni tarjima qilishda ularga madaniy va semantik yondashuv zarur.

REFERENCES

1. Jeyn Ostin – Pride and Prejudice (G'urur va Taassub).
2. Uilyam shekispr (Hamlet) o'zbekcha tarjimasi bilan birgalikda.
3. Mark Tven – The Adventures of Tom Sawyer.
4. "Frazeologiya nazariyasi asoslari" - Y. X. Toshmatov
5. "O'zbek tilida frazeologizmlarning semantikasi va uslubiy xususiyatlari" - N. Maxmudov
6. "Frazeologik birliklar: Ularning shakli va mazmuni" - G'. Xolmatov
7. Yu.Mehmonove and S.Jurayeva. "Translation of English collocations into Uzbek language".
8. Yu Mehmonova. "Lexico-grammatical resources of functional equivalence in the translation of text from English to Uzbek. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 349-353
9. I. G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov Tarjima Nazaryasi "Tafakkur Bo'stoni" Toshkent - 2012